

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**AXMEDOVA NAZOKAT FARHOD QIZI**

**XIVA XONLIGI SAROYI ADABIY MUHITI (XIX ASRNING IKKINCHI  
YARMI – XX ASR BOSHLARI)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**URGANCH - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Axmedova Nazokat Farhod qizi**

Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari).....3

**Ахмедова Назокат Фарход кизи**

Литературная среда двора Хивинского ханства (вторая половина XIX века – начало XX века).....25

**Akhmedova Nazokat Farhod kizi**

The literary environment of the court of the Khiva Khanate (second half of the 19th century - beginning of the 20th century).....49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of publications .....53

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**AXMEDOVA NAZOKAT FARHOD QIZI**

**XIVA XONLIGI SAROYI ADABIY MUHITI (XIX ASRNING IKKINCHI  
YARMI – XX ASR BOSHLARI)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**URGANCH - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Tar1998 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Matyakubova Muborak Madrimovna**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Sotimov Bahodir Mangliboy o'g'li**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "09" dekabr soat 14 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16.) e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (888 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16; e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "21" noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "21" noyabr dagi 18 raqamli reestr bayonnomasi.)



**M. K. Saribayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
tarix fanlari doktori, dotsent

**X. X. Matyakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, tarix fanlari doktori, dotsent

**U. I. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari  
doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida globallashuv bosqichi davrida tarixiy, adabiy - madaniy hayot rivoji samarasi o'laroq vujudga kelgan madaniy merosni saqlash, madaniy jarayonlar taraqqiyotiga hissa qo'shgan tarixiy shaxslar, hukmdorlar, olimu fozillar faoliyati va ijod namunalarini tadqiq etish muhim hisoblanadi. Bu jarayon avvalo turli xalqlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro ilm-fan va madaniy munosabatlarini bir-biriga yaqinlashtirishga, davlat arboblari faoliyatini izchil o'rganishga xizmat qiladi. Davlat boshqaruvi va ilmiy - ma'rifiy hamda madaniy rivojida dunyo xalqlari e'tirofiga sazovor bo'lgan tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish hamda tadqiq etish jahon tarixshunosligida ham dolzarb hisoblanadi.

Xiva xonligi O'rta Osiyo tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy madaniy hayoti, xalqaro munosabatlarida muhim iz qoldirgan davlat. Xonlikning madaniy va adabiy muhiti alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganishni taqozo etadi. Mustaqillikka erishgach, tarix fani dolzarb ilmiy yo'nalishlari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti masalasi ham yetarlicha o'rganilmagan mavzular qatoriga kiradi.

Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi davrida Xiva xonligida adabiy, madaniy hayot jonlandi, she'riyat, kitobat, xattotlik, tarixnavislik, tarjima va toshbosma asarlar yanada ko'paydi. Rossiya tajovuziga qadar xonlikda madaniy hayot va adabiy muhit aniq yo'nalishlarda rivojlandi. Rossiya imperiyasining hujumi xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga keskin ta'sir ko'rsatdi, xonlik siyosiy mustaqillikdan mahrum bo'ldi. Ana shunday ziddiyatli sharoitda ham madaniyat va san'at, adabiyot, tarix, musiqa ilmi rivojlanishdan to'xtamadi. Chunki shu davrda Xiva xonlida Muhammad Rahimxon Feruzdek madaniyat va san'atni e'zozlaydigan, unga homiy bo'lgan hukmdor hokimiyat tepasida edi. Muhammad Rahimxon II o'z zamonasida ilm ahliga homiylik qilgan hukmdor, musiqashunos, shoir sifatida tarixda iz qoldirgan bo'lib, uning faoliyatiga baho berish dolzarb hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "O'tmishga berilgan baho, albatta, xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan holi bo'lishi zarur"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son, 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2995-son hamda 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 126-sonli qarorlarida, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonning beshinchi ilovasida belgilangan

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston / NMIU, 2017. – B. 469.

vazifalarni amalga oshirish va o'zbek davlatchiligida muhim o'rin tutgan hukmdorlar siyosini yoritishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi<sup>2</sup>.** Xiva xonligi tarixi, ijtimoiy-madaniy hayotiga oid ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga oid adabiyotlarni 5 ta guruhga bo'lib, o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar.
2. XIX asrdan XX asr boshlarigacha olib borilgan tadqiqotlar.
3. Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar.
4. Mustaqillik davri nashrlari va ilmiy tadqiqot ishlari.
5. Xorijiy adabiyotlar.

**Birinchi** guruhga xonlik tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar yoritilgan quyidagi manbalar kiradi. Xivalik tarixchilar Shermuhammad Munisning "Firdavs ul-iqbol", Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohid ul-iqbol" va Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi" singari tarixchilarning asarlari kiradi. Ular XVII asrda Abulg'azi Bahodirxon boshlab bergan tarixnavislik ilmini davom ettirganlar. Shu bilan birga, bu guruh adabiyotlariga xonlikda faoliyat ko'rsatgan tarixchilar Hasanqori Laffasiyning "Tazkirayi shuaro", Ahmadjon Tabibiyning "Majmuat ush-shuaro", Bobojon Tarroh - Xodimning "Xorazm navozandalari", Sayyid Homid To'ra Komyobning "Tavorix ul-xavonin" Jumaniyoz Hoja Xorazmiy al-Xivaqiyning "Isfandiyor davrining voqealari", Abdulla Boltayevning "Xorazm tarixiga materiallar", Polvonniyoz Hoji Yusupovning "Xotiralar" bundan tashqari, Mulla Bekchon Rahmon o'g'lining xorazm musiqa tarixiga bag'ishlab yozilgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" asarlari kiradi.

**Ikkinchi** guruhga Xiva xonligiga kelgan sayyohlar, olimlar, harbiylar va boshqa davlat vakillarining yozgan asarlari kiradi. Bular qatorida N.Muravyev, G.I.Danilevskiy, M.Ivanin, L.Sobolev, D.Gladishev, X.Vamberi, V.Velyaminov-Zernov, A.Kaulbars, A.Shile, A.L.Kun, Ye.Jelyabujskiy, A.Samoylovich, Grishfeld, general-leytenantlar V.N.Trotskiy va M.A.Terentev, polkovniklar L.F.Kostenko va F.I.Lobisevich, sharqshunoslar N.I. Veselovskiy, S.V.Jukovskiylarning asarlari muhim ahamiyatga ega.

**Uchinchi** guruh sovetlar davrida Xiva xonligi tarixini o'rganishga V.Bartold, B.Lunin, P.Ivanov, Ya.G'ulomov, A.Boltayev, A.Muhammadjonov va T.Ne'matov, M.Yo'ldoshev, T.To'xtametov, Q.Munirov, H.Ziyoyev, A.Boboxonov, G.Chabrov, N.Sodiqova, E.Ismoilova, E.Axundjonov, Q.Rahmonov, N.Komilov, A.Murodov kabi olimlar ham katta hissa qo'shdilar.

---

<sup>2</sup> Muammoning o'rganilganlik darajasi dissertatsiyaning I bobida batafsil yoritilgan.

**To‘rtinchi** guruhga mustaqillik davrida nashr qilingan mavzuga aloqador ilmiy adabiyotlar va himoya qilingan dissertatsiyalar kiradi. Ular qatorida K.Nurjonov, K.Xudoyberganov, D.Rahim va Sh.Matrasul, N.Qobulov, O.Qo‘shjonov va N.Polvonovlarning xonlik adabiy-madaniy muhitiga oid ma’lumotlar yoritilgan asarlaridan hamda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bir qator tadqiqot ishlaridan, jumladan, A.Abdurasulov, M.Abdurahmonov, G.Ismoilova, O.Mutalov, S.Saburova, F.Ernazarov, D.Bobojonov, M.Matyakubova, U.Sharipov, S.Matkarimova, Yu.Rahmonova, Sh.Nurullayeva, F.Tojiyeva, N.Hamrayeva, B.Saparboyev, U.Bekmuhammad va H.Yusupovlarning dissertatsiya va avtoreferatlaridan foydalanildi.

**Beshinchi** guruhga Xiva xonligi tarixiga oid chet ellik olimlarning asarlari kiradi. Ularning asarlarida nafaqat XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Xiva xonligi tarixi, balki bu davr madaniy muhiti tarixi yoritilgan. Ulardan Mak-Gaxan, Yu.Bregel, M.Olvort, S.Bekker, J.Uiler kabi olimlarning asarlarini ko‘rsatish mumkin. XX asr 60-yillari oxirida amerikalik olim E.Ollvors o‘zining “O‘zbek adabiy siyosati” kitobida Xiva tarixchisi Ogahiyning badiiy-tarixiy asarlari haqida to‘xtalib, o‘zining tahliliy fikrlarini bergan. Tadqiqotchi B.Seymour asarida esa Buxoro va Xiva xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi masalasi keng yoritilgan. Xorijlik mualliflar R.Gink, K.Kombas, Yu.Goldenshteyn asarlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot, me‘moriy yodgorliklarning saqlanish holati to‘g‘risida keng ma’lumotlar aks etgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi saroyi adabiy muhitini yoritish; Muhammad Rahimxon II Feruzning Xiva xonligi adabiy muhit rivojidadagi faoliyatini tizimli ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Yuqorida qayd etilgan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

Xiva xonligida yuzaga kelgan adabiy muhitni manbashunoslik, tarixshunoslik nuqtayi nazardan tahlil qilish;

Xiva xonligidagi ijtimoiy – siyosiy, jarayonlarning ma’naviy va madaniy hayotga ta’sirini o‘rganish;

Xiva xonligi saroyidagi ijodkorlarning faoliyati va ijod namunalarini she’riy munozaralar orqali ko‘rsatib berish;

xon avlodlarining saroy adabiy muhitidagi ijodiy faoliyatini yoritish, ularning ijod namunalarini o‘rganish;

saroydagi adabiy va madaniy jarayonlarga davlat homiyligi asosida rivojlangan adabiy madaniy muhitni tarixnavislik va tarjima maktabi, qo‘lyozmalar, xattotlik, matbaachilik san’ati orqali ko‘rsatib berish;

ilm-fan rivoji, madrasa, kutubxona va ilmiy markazlar faoliyatini o‘rganish;

Xiva adabiy muhitida jadidlar faoliyati va ularning adabiy merosini yoritib berish;

o'rganilgan masalalar yuzasidan amaliy ahamiyatga molik taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** Xiva xonligi adabiy muhiti tarixiga oid asarlar, saroy adabiy muhitiga bag'ishlangan ilmiy qarashlar, yondashuvlar, nazariyalar va xulosalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti va u yerda yaratilgan ilmiy merosni targ'ib etish, ushbu muhitga oid ilmiy nazariyalar va qarashlarni baholash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, uzviylik, tarixiy ma'lumotlarni qiyosiy va tanqidiy o'rganish, umumlashtirish va tarixiy-qiyosiy tahlil qilish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Xiva xonligi saroyi adabiy muhitiga oid manbalar qiyosiy tahlil qilinib, tahlil natijalari tadqiqotga kiritildi. Adabiy muhit taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari umumlashtirildi, xonlikdagi siyosiy – ijtimoiy jarayonlarning ma'naviy va madaniy hayotga ta'siri o'rganildi;

Qo'ng'irotlar sulolasiga qadar xonlikdagi adabiy jarayonlar jumladan she'rxonlik kechalarini xonlar rag'bati va ishtiroki bilan amalga oshirilishining davomiyligi o'rganildi. Bu an'ana Qo'ng'irotlar sulolasi davrida ayniqsa, Muhammad Rahimxon II davrida yanada jonlanganligi dalillandi. Saroyda tashkil qilingan adabiy majlislar va she'riyat kechalarining ahamiyati yoritib berildi. Saroyda adabiy muhitida shakllangan shoirlar va ularning ijod namunalari o'rganildi. (Ba'zi bir shoir nomlari birinchi marta muomilaga kiritildi). Saroy shoirlaridan tashqari xalq shoirlarining faoliyati ham o'rganildi. Xonlar avlodidan yetishib chiqqan shoirlarning keyingi tadqiri va ijodiy faoliyati ochqilandi;

Xonlikdagi she'riyat va adabiyot, ilm-fan va ta'lim tizimining holati uning o'ziga xos xususiyatlari, tarixnavislik, tarjima, xattotlik, qo'lyozma, matbaachilik va ularning xonlik adabiy muhiti rivojidadagi ahamiyati ko'rsatib berildi;

Xorazmda jadidchilik faoliyati hamda Xorazm jadidchilik harakati namoyondalarining adabiy muhitda tutgan o'rni yoritib berildi. Jadidchilik faoliyati zamonaviy ruhda tahlil qilindi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** shuni ko'rsatadiki Xiva xonligi saroy tarixchilarining asarlari, xonlikning so'nggi davr tarixini yorituvchi manbalar tadqiq etilib, ularda ko'rsatilgan adabiy muhitiga oid ma'lumotlar tahlil qilingan; Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti tarixiga oid arxiv ma'lumotlari, ilgari nashr qilinmagan yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan; XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti tarixiga oid materiallar tizimlashtirildi, Saroy adabiy muhitiga oid muammoli masalalar tahlili asosida tegishli taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti va u yerda ijod qilgan ijodkorlar, shoirlar, tarjimon va tarixchilar hamda musiqa namoyandalari faoliyati masalasi respublika va Xiva Ichan-qal'a arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlar hamda saroy tarixchilari asarlari, xorijiy

elchilarning esdaliklari kabi birlamchi manbalarga tayangan holda yoritilganligi, shu asosda tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi hamda olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va ularning vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Xiva xonligi saroy adabiy muhiti tarixiga oid metodologik yondashuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirishga xizmat qilib, u mazkur masalalar haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi saroyida ijod qilgan shoirlar, tarixchi va tarjimonlar faoliyatiga doir materiallar o‘zbek xalqining tarixiy merosini saqlash, tadqiq etishga qaratilgan davlat dasturlarini bajarishga hamda oliy ta‘lim muassasalarida maxsus kurslarni tashkil etishga, O‘zbekiston tarixiga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida) tadqiq etish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va xulosalar asosida:

Xiva xonligi saroyi adabiy muhitiga oid manbalar qiyosiy tahlil qilinib, tahlil natijalari tadqiqotga kiritildi. Adabiy muhit taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari umumlashtirildi, xonlikdagi siyosiy – ijtimoiy jarayonlarning ma‘naviy va madaniy hayotga ta‘siri o‘rganildi. Ushbu ma‘lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanalidagi “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “G‘azal bo‘stoni” radioeshittirishlarining ssenariylarini (2024-2025yillar) tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24 ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 11-sentabrdagi 05-09-1424-son dalolatnomasi). Natijada teletomoshabinlarga Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti va uning rivoji to‘g‘risida ma‘lumotlarning shakllanishiga xizmat qiladi;

Qo‘ng‘irotlar sulolasiga qadar xonlikdagi adabiy jarayonlar jumladan she‘rxonlik kechalarini xonlar rag‘bati va ishtiroki bilan amalga oshirilishining davomiyligi o‘rganilib, bu an‘ana Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida ayniqsa, Muhammad Rahimxon II davrida yanada jonlanganligi dalillandi. Shuningdek, saroyda tashkil qilingan adabiy majlislar va she‘riyat kechalarining ahamiyati yoritib berildi. Saroyda adabiy muhitida shakllangan shoirlar va ularning ijod namunalari o‘rganildi. (Ba‘zi bir shoir nomlari birinchi marta muomilaga kiritildi). Saroy shoirlaridan tashqari xalq shoirlarining faoliyati ham o‘rganildi. Xonlar avlodidan yetishib chiqqan shoirlarning keyingi tadqiri va ijodiy faoliyati ochqilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanalidagi “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “G‘azal bo‘stoni” radioeshittirishlarining ssenariylarini (2024-2025yillar) tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24 ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 3-sentabrdagi 05-01-21-4736-son dalolatnomasi). Ushbu tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston hududlarida joylashgan qadimiy obidalarni

madaniy-tarixiy kontekstda talqin qilish, san'at asarlarining tarixiy manba sifatida o'rni va ahamiyatini aniqlash, xalqning estetik qarashlarini o'rganish va targ'ib qilish imkonini bergan;

Xonlikdagi she'riyat va adabiyot, ilm-fan va ta'lim tizimining holati uning o'ziga xos xususiyatlari, tarixnavislik, tarjima, xattotlik, qo'lyozma, matbaachilik va ularning xonlik adabiy muhiti rivojida ahamiyati ko'rsatib berilganligi haqidagi ma'lumotlardan foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi 2025-yil 3-sentabrdagi 05-01-21-4736-son dalolatnomasi). Mazkur ilmiy natijalar yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etish, tariximiz va milliy madaniyatimizni o'rganish, yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida tayyorlanadigan video materiallar va targ'ibot qo'llanmalarini ishlab chiqish imkonini bergan;

Xorazmda jadidchilik faoliyati, Xorazm jadidchilik harakati namoyondalarining adabiy muhitda tutgan o'rni va Jadidchilik faoliyati zamonaviy ruhda tahlil qilinganligi haqidagi ma'lumotlardan foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi 2025-yil 3-sentabrdagi 05-01-21-4736-son dalolatnomasi). Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi yangi ma'lumotlar O'zbekiston tarixi bo'yicha Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti haqidagi qarashlarni va nazariyalarni takomillashtirish imkonini bergan.

**Tadqiqot aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 4 ta ilmiy Anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro konferensiya va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natajalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, impakt-faktorli xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 133 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi "Xiva xonligi saroyi adabiy muhitining manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili" deb nomlanib, uning "*Xiva xonligi saroyi adabiy muhitining yozma manbalarda aks etishi*" deb nomlangan paragrafida Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti manbashunosligi yoritib berildi. Xonlik tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar Shermuhammad Munisning (1778-1829) "Firdavs ul-iqbol", Muhammad

Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning (1809-1874) "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohid ul-iqbol", Muhammad Yusuf Bayoniyning (1858-1923) "Shajarayi Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi" asarlarida yoritilgan bo'lib, ular XVII asrda Abulg'ozzi Bahodirxon boshlab bergan tarixnavislik ilmini davom ettirganlar. Shuningdek, mahalliy tarixchilardan Hasanqori Laffasiyning (1880-1945) "Tazkirayi shuaro"<sup>3</sup>, Ahmadjon Tabibiyning (1869-1911) "Majmuat ush-shuaro"<sup>4</sup>, Bobojon Tarroh - Xodimning (1878-1971) "Xorazm navozandalari"<sup>5</sup>, Sayyid Homid To'ra Komyobning (1862-1922) "Tavorix ul-xavonin"<sup>6</sup>, Jumaniyoz Hoja Xorazmiy al-Xivaqiyning "Isfandiyor davrining voqealari"<sup>7</sup>, Abdulla Boltayevning (1896-1966) "Xorazm tarixiga oid materiallar"<sup>8</sup>, Polvonniyoz Hoji Yusupovning (1861-1936) "Xotiralar"<sup>9</sup>, bundan tashqari, Mulla Bekchon Rahmonning Xorazm musiqa tarixiga bag'ishlab yozilgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" kabi asarlarini keltirish mumkin. Bulardan tashqari, quyidagi asarlarda Xorazmdagi siyosiy, ijtimoiy jarayonlar bilan birga xonlikning madaniy hayoti ham tilga olingan. "Xonlar tarixi"<sup>10</sup>, "Sayyid Muhammadxon tarixi"<sup>11</sup>, "Xivada osori-atiqalar tarixi"<sup>12</sup>, "Xorazmning ta'rifi"<sup>13</sup>, "Xiva shahri va uning atrofining ma'muriy bo'linishi"<sup>14</sup>, "Xorazm tarixi"<sup>15</sup>, "Xorazm xonligi haqida tarixiy hujjatlar"<sup>16</sup>, "Xorazmni boshqargan xonlarning avlodlari, kelib chiqishi, shajarasi, mol-mulki, o'zbek podsholarining yurish-turishlari va urf-odatlar"<sup>17</sup>, "Asfandiyorxon hukmronlik qilgan davrlarda bo'lib o'tgan ba'zi bir voqealar haqida"<sup>18</sup> kabi asarlar materiallari katta ahamiyatga ega<sup>19</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi paragrafi "*Mavzuning tarixshunoslik tahlili*" deb nomlangan. Mavzuning tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlili adabiyotlarni 4 guruhga bo'lishni taqozo qiladi. 1. XIX asrdan XX asr boshlariga oid bo'lgan tarixiy tadqiqotlar. 2. Sovet davrida olib borilgan tarixshunoslik tadqiqotlari. 3. Mustaqil O'zbekistonda yaratilgan tadqiqotlar. 4. Xorij tarixshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar.

**Birinchi guruhga** oid adabiyotlarga XIX asrdan XX asr boshlariga oid bo'lgan tarixiy tadqiqotlar kiradi. Rus mualliflaridan N.Muravyev, G.I.Danilevskiy, M.Ivanin,

<sup>3</sup> Лаффасий Ҳасанқори ўғли. Тазкираи шуаро. Нашрга тайёрловчи П.Бобожонов. – Урганч: Хоразм, 1992. – Б. 120.

<sup>4</sup> Табибий. Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузшоҳий. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти фонди 29 - тошбосма нусха.

<sup>5</sup> Бобожон Таррох. Хоразм навозандалари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б. 96.

<sup>6</sup> Комёб Сайид Ҳомид Тўра. Таворих ул-хавонин. – Тошкент: Академия, 2002. – Б. 7.

<sup>7</sup> Qo'lyozma, O'zFASHI. №11254/III.

<sup>8</sup> Болтаев А. Хоразм тарихига оид материаллар. Қўлёзма, ЎЗР ФА ШИ, №9320, 93 в.

<sup>9</sup> Полвонниёз Ҳожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. – Урганч, 2000.

<sup>10</sup> Комуоб. Tavorix al-xavonin // Qo'lyozma, O'zFASHI № 7717.

<sup>11</sup> Tarixi Sayyid Muhammadxon // Qo'lyozma, O'zFASHI №845.

<sup>12</sup> Qo'lyozma, O'zFASHI. №12583.

<sup>13</sup> Qo'lyozma, O'zFASHI. №6895/IX.

<sup>14</sup> Qo'lyozma, O'zFASHI. №7795/II.

<sup>15</sup> Qo'lyozma, O'zFASHI. №10231.

<sup>16</sup> Qo'lyozma, O'zFASHI. №10231.

<sup>17</sup> Qo'lyozma, O'zFASHI. №11254/I.

<sup>18</sup> Qo'lyozma, O'zFASHI. №11254/III.

<sup>19</sup> Xamrayeva N. Abulg'ozzi Bahodirxonning ilmiy merosi va uning tarixiy ahamiyati: Tarix fan. bo'yicha falsafa doktori diss. – Qarshi, 2023. – B.14.

L.Sobolev, D.Gladishev, X.Vamberi, V.Velyaminov-Zernov, A.Kaulbars, A.Shile, A.L.Kun, Ye.Jelyabujskiy, A.Samoylovich, Grishfeld, general-leytenantlar V.N.Trotskyi va M.A.Terentev, polkovniklar L.F.Kostenko va F.I.Lobisevich, sharqshunoslar N.I.Veselovskiy, S.V.Jukovskiylar<sup>20</sup> Xiva xonligi tarixiga doir ma'lumotlarni qayd etganlar. Ulardan L.Kostenko, A.Kaulbars, A.Shile, Ye.Jelyabujskiy kabi mualliflarning asarlarida Xiva xonligi aholisi, xonlikda yashagan xalqlar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy muhit haqida ma'lumotlar berilgan. A.Kun xonlikdan olib ketilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning batafsil ro'yxatini qayd qilgan<sup>21</sup>. Rus mualliflaridan N.Veselovskiy, A.Samoylovich, V.Stasovlar xonlikdagi madaniy hayot va aholining savodxonligi haqida ma'lumotlar keltirishgan<sup>22</sup>. Grishfeld va Galkinlarning hamkorlikda yaratgan asarida maorif va moddiy madaniyatga oid ma'lumotlar keltirilgan<sup>23</sup>.

**Ikkinchi guruh** Sovet davrida olib borilgan tarixshunoslik tadqiqotlari. Bular qatorida V.Bartold, B.Lunin, P.Ivanov, Ya.G'ulomov, A.Boltayev, A.Muhammadjonov, T.Ne'matov, M.Yo'ldoshev, T.To'xtametov, Q.Munirov, H.Ziyoyev, A.Boboxonov, G.Chabrov, N.Sodiqova, E.Ismoilova, E.Axundjonov, Q.Rahmonov, N.Komilov, A.Murodov<sup>24</sup> larning tadqiqot ishlarini qayd qilish mumkin. M.Yo'ldoshev,

---

<sup>20</sup> Муравьев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах; Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. Записки Императорского русского географического общества. – СПб., 1851, кн. с. 124-325; Иванин М.И. Описание зимнего похода в Хиву в 1839-1840 гг. – СПб., 1874; Соболев Л. Обзор доступов оступов в Хивинское ханство и краткие сведения о нем // ВС (кискартмалар рўйхати диссертацияда берилган), 1873; Гладышев Д. Муравин. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 гг. поручиком Оренбург. Драгуном. Полка Дмитрием Гладышевым и геодезистом Муравиным. – СПб., 1851; Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии. – М.: А.И.Мамонтов, 1867; Вельяминов-Зернов В.В. Архивные монеты бухарские и хивинские // ТВОРАО, 1889; Каульбарс А.В. Материалы для разрешения вопроса о повороте Аму-Дарьи в Каспийское море. –Тифлис, 1887; Шиле А. Хива и хивинцы и покорение Хивы. Очерк. – М., 1914; Кун А.Л. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г. // ЗИРГО. – Санкт-Петербург, 1874. – С. 47-58; Желябужский Е. Очерки и завоевание Хивы. С 9-ю картинками. – Москва, 1875 // Туркестанский сборник. – Ташкент: 85; Самойлович А.Н. К изучению Хивы и Хивинского ханства // Живая Старина, год 18. вып. 2-3, отд. 3. – М.: 1909; Гришфельд. Военно-статическое описание Хивинского ханства, сост. Капитаном ген. штаба Гришфельдом, перераб. генерал-майором Галькиным. Ч. 1-2. – Т.:1902-1908; Хивинский поход 1873 г. по официальным источникам. Под ред. В.Н.Троцкого. – Санкт-Петербург, 1873; Терентев М.А. История завоевания Средней Азии. В 3-х томах. – Санкт-Петербург, 1906; Костенко Л.Ф. Город Хива в 1873 г. – Санкт-Петербург, 1873; Лобысевич Ф.И. Описание Хивинского похода 1873 года. – Санкт-Петербург, 1898; Веселовский Н.И. Посольства И.Ф.Федотова в Хиву 1669-1670 гг. и подробности его побывания в ханстве. – Санкт-Петербург, 1882; O'sha muallif. Прием в России и отпуск Среднеазиатских послов в XVII–XVIII столетие. – Санкт-Петербург: 1884; O'sha muallif. Русские невольники в Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1886; Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Петроград, 1915. – С.42-43.

<sup>21</sup> Маткаримова С. М. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги (XIX – XXI аср боши). – Урганч, 2018. – Б. 24.

<sup>22</sup> Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времён до настоящего времени. – СПб., 1877. – С. 364; Самойлович А.Н. К изучению Хивы и Хивинского ханства. – Москва, 1909; Стасов В.В. Трон хивинских ханов. – СПб., 1886.

<sup>23</sup> Эрназаров Ф.Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигидаги маданият ҳаёт: Тарих фан. ном. дисс... – Тошкент, 2005. – Б. 5.

<sup>24</sup> Бартольд В. Очерк истории туркменского народа. Вырез. Из. кн.: Туркмения. Т. 1. – Т.: 1929; Луни Б. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т.: Фан, 1965; O'sha muallif. Средняя Азия в научном наследии отечественных востоковедов: историографический очерк; Иванов П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. Новые источники для истории народов Средней Азии. – Л.: ГПБ, 1940; Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи: қадим замонлардан ҳозирги кунгача. – Тошкент: ЎзФАН, 1959; Болтаев А. Хоразм тарихига оид ҳужжатлар | Қўлзма. ЎзФА ШИ. №9320; Хива ҳақида эсдаликлар // Қўлзма. ЎзФА ШИ. – №11645; Мухаммаджонов А, Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатларига доир баъзи манбалар. – Т.: ЎзР ФА нашриёти, 1957; Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер

Ya.G‘ulomov, A.Muhammadjonov va G.Ne‘matov, T. To‘xtametovlar tadqiqoti Xiva xonligi madaniy hayoti va unga siyosiy tuzumning ko‘rsatgan ta‘sirini ko‘rsatib beradi<sup>25</sup>. E.Ismoilova, E.Axundjanov, N.Sodiqova, Q.Rahmonovlar O‘rta Osiyodagi, jumladan, Xiva xonligidagi kitobat san‘atining o‘ziga xosligi va kutubxonachilik ishi to‘g‘risida yozganlar. A.Murodov va N.Komilovlar asarlarida xattotlik, kitobat san‘ati, xattot, kitobdorlar faoliyatiga alohida to‘xtalganlar. G.Chabrov, A.Boboxonovlar esa o‘zbek matbaasi tarixi, O‘rta Osiyodagi ilk toshbosma haqida ma‘lumotlarni keltirganlar<sup>26</sup>. M.Yunusov, Yu.Yusupov, F.G‘anixo‘jayevning risola va maqolalarida Xorazm shoirlari haqida so‘z yuritilgan<sup>27</sup>.

**Uchinchi guruhga** mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar kiradi. Ular qatorida A.Abdurasulov, M.Abdurahmonov, G.Ismoilova, O.Mutalov, S.Saburova, F.Ernazarov, D.Bobojonov, M.Matyakubova, U.Sharipov, S.Matkarimova, Yu.Rahmonova, N.Hamrayeva, B.Saparboyev, U.Bekmuhammad va H.Yusupov<sup>28</sup>

---

эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959; Тўхтаматов Т. Россия и Хива в конце XIX – нач. XX вв. – М.: Наука, 1969; Муниров К. Мунис, Огахий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Т.: Ўздавнашр, 1960; O‘sha muallif. Хоразмда тарихнавислик. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2002; Зиёев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 1962; O‘sha muallif. Тошкентнинг Россияга қўшиб олинishi. – Т.: Фан, 1967; O‘sha muallif. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш, 1998; O‘sha muallif. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. – Т.: Шарк, 2006; Бoboxonov А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979; Чабров Г.Н. У истоков узбекской полиграфии (Хивинская литография 1874-1910 гг.). // Исследования и материалы. Т.IV; Содиқова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975; Исмоилова Э. Искусство оформление среднеазиатской рукописной книги XVIII-XX вв. – Т.: Узбекистан, 1986; Ахунджонов Э. Книга и книжное дело в Узбекистане. – Т.: Узбекистан, 1978; O‘sha muallif. Письменная культура Средней Азии. – Т.: Издательство нерядного наследие имени Абдуллы Кадыри, 2000; Рахмонов Қ. Хива - Хоразмнинг билим ва маданият ўчоғи. – Т.: Фан, 1972; Комилов Н. Бу кадимий санъат. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988; Муродов А. Ўрта Осиёда хаттотлик санъати. – Т.: Фан, 1971.

<sup>25</sup> Эрнazarov Ф.Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигида маданият ҳаёт: Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 2005. – Б.196-197.

<sup>26</sup> Матёкубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. – Тошкент: 2012. – Б. 8.

<sup>27</sup> Юнусов М. Комил Хоразмий (даври, ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Ўздадабийнашр, 1960. – Б. 102; Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – Б.140; Ғанихўжаев Ф. Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 80.

<sup>28</sup> Абдурашулов А. Социально-экономическая и культурная жизнь города Хивы в конце XIX – начале XX века: Автореф... дисс. канд. истор. наук. – Ташкент: Ўз ФА ТАИ, 1988. – С.19; Абдурахманов М. Научная деятельность А.З.Валидова в Туркестане: Автореф... докт. ист. наук. – Ташкент: ЎЗМУ, 2005. – С. 46; Исмоилова Э.М. Рукописная книга Средней Азии позднего периода. Приемы декора (XIX в.): Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент: Ўз ФА ШИ, 1990. – С. 49; Исмоилова Г. Феруз даври Хоразм адабий мухити: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: Ўз ФА ТАИ, 1995. – Б. 139; Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида: Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент: Ўз ФА ШИ, 2003. – Б. 150; Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими: Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎЗМУ, 2002. – Б. 180; Эрнazarov Ф.Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигидаги маданият ҳаёт: Тарих фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2005; Bobojonov D. “Ichan qal‘a” davlat muzeu qo‘riqxonasi tarixi (1920-2020-уу.): Tarix fan. nom. ... diss. – Urganch, 2023. – 127 b; Матёкубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи: Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Шарипов У. Хива хонлиги тарихи (1511-1920 йй.): Тарих фан. ном. ... дисс. автореф. – Нукус, 2009; Маткаримова С. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги (XIX – XXI аср боши). – Урганч, 2018; Рахманова Ю.М. Хива шахрининг XVI – XX аср бошларидаги ижтимоий-сиёсий ҳаёти: анъана ва ўзгаришлар: Тарих фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 30; Нуруллаева Ш.Қ. Хоразм воҳаси ўзбеклари анъанавий кийимлари (XIX аср охири XX аср биринчи ярми): Тарих фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 30; Тожиёва Ф. Хива хонлигида кулчилик муносабатларининг моҳияти ва ижтимоий оқибатлари. – Бухоро: Дурдона, 2023. – Б.129; Hamrayeva N. Abulg‘ozi Bahodirxonning ilmiy merosi va uning tarixiy ahamiyati. – Qarshi, 2023. – В.139; Сапарбоев Б. Муҳаммад Раҳимхон I даврида Хива хонлиги тарихи (1806-1825 йй.) – Бухоро: Дурдона, 2023. – Б.144; Маткаримов М., Маткаримова С., Бекмуҳаммад У. “Ёш хивалиқлар” нинг

larning tadqiqot ishlarini qayd qilish lozim. Sh.Vohidov hamda A.Erkinov ishlarida<sup>29</sup> Muhammad Rahimxon II va uning boy kutubxonasi xususida soʻz yuritiladi. Tadqiqotchi F.N. Ernazarovning nomzodlik dissertatsiyasida XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida madaniy hayot va Xiva saroy kutubxonasi faoliyati, xonlikdagi madrasalar va ulardagi taʼlim jarayonlari haqida maʼlumotlar yoritilgan<sup>30</sup>. Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixiga oid M.M.Matyakubovanning tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif Xiva xonligidagi kitobat sanʼati, Xorazm xattolari va xon saroy kutubxonasi haqida keng qamrovli maʼlumot beradi<sup>31</sup>.

**Toʻrtinchi guruhga** chet ellik tarixchilarning mavzuga doir asarlari kiradi. Venger sharqshunosi H.Vamberi va 1873-yili Xiva yurishida qatnashgan Amerikaning “New-York Herald” va Londonning “Daily News” gazetasi muxbiri Yanuariy Aloiziy Mak-Gaxan asarlarini keltirib oʻtish mumkin<sup>32</sup>. Xiva xonligi tarixi boʻyicha yuqorida nomlari tilga olingan olimlardan tashqari, Yu.Bregel<sup>33</sup>, M.Olvort<sup>34</sup>, S.Bekker<sup>35</sup>, J.Uiler<sup>36</sup> kabi olimlarning mavzuga oid asarlarini koʻrsatish mumkin. Xorijlik mualliflar R. Gink, K.Kombas, Y.Goldshteyn tomonidan yaratilgan tarixiy adabiyotlarda Xiva xonligidagi madaniy hayot, meʼmoriy yodgorliklarning saqlanish holati toʻgʻrisida keng maʼlumotlar aks etgan<sup>37</sup>.

Dissertatsiyaning uchinchi paragrafi “*Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning maʼnaviy va madaniy hayotga taʼsiri*” deb nomlangan. Bu paragrafda ijtimoiy - siyosiy jarayonlarning maʼnaviy, madaniy hayotga taʼsiri tahlil qilingan. XIX asr boshlarida Xiva xonligida siyosiy hokimiyat yangi sulola – oʻzbeklarning qoʻngʻirotlar sulolasiga oʻtdi. Bu sulola Xiva xonligida 1804-yildan 1920-yilgacha hukmronlik qildi. Qoʻngʻirotlar sulolasidan Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon I, Olloqulixon, Muhammad Aminxon, Sayyid Muhammadxon, Muhammad Rahimxon II kabi hukmdorlar madaniyat, sanʼat, ilm-fan, adabiyot, tarix, sheʼriyat rivojiga homiylik qilganlar. Sayyid Muhammad vafotidan soʻng 1865-yili uning oʻgʻli Muhammad Rahimxon II taxtga oʻtiradi. Uning hukmronligi davrida xonlik kuchli davlatga aylandi,

---

республика давридаги фаолияти. – Бухоро: Дурдона, 2024. – Б.198; Yusupov H. XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari: Tarix fani boʻyicha falsafa doktori. diss. – Urganch, 2024. – B. 163.

<sup>29</sup> Sh.Vahidov et A Erkinov. Une source meconnue pour l'etude de la production de livres a la cour de Muhammad Pahim Khan II (Khiva, fin XX s.) // Cahiers d'Asie centrale, vol. 7 (1999). – P. 175-193.

<sup>30</sup> Эрнazarов Ф. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигидаги маданий ҳаёт: Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 195.

<sup>31</sup> Matyukubova M.M. XIX асрнинг иккинчи ярми XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи: Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2008. – Б. 19.

<sup>32</sup> Yusupov H. XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari: Tarix fani boʻyicha falsafa doktori diss. – Urganch: 2024. – B. 28.

<sup>33</sup> Bregel Y. Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel. Indiana University. Part II. Descriptions and Travel; Written Sources for Central Asian History; Ethnography; Folklore; Folk Entertainments; Physical Anthropology, 1995.

<sup>34</sup> Holdeworth M. Turkistan in the nineteenth century: A brief history of the Khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – London, 1959.

<sup>35</sup> Becker S. Russias protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865-1924. – Cambridge. MA: Harvard University, 1968.

<sup>36</sup> Wheeler G.E. The modern history of Soviet Central Asia. – London-New York, 1964.

<sup>37</sup> Gink R., Combos K. The pearls of Oʻzbekistan: Bukhara, Samarkand and Khiva. – Budapest, Corvina Press, 1974; Goldenstein Y. Samarkand-Boukhara-Chakrisabz-Khiva. – Paris, ACR Edition, 1995. – P. 192.

ijtimoiy-iqtisodiy sohada islohotlar amalga oshirildi, ulkan ilmiy-adabiy muhit shakllantirildi, mingdan ortiq qo‘lyozmalar ko‘chirildi<sup>38</sup>, yuzdan ortiq asarlar arab va fors tillaridan eski o‘zbek tiliga tarjima qilindi<sup>39</sup>, she‘riy ijodkorlik va kitobxonlik davlat siyosati miqyosiga ko‘tarildi<sup>40</sup>. Ammo Rossiya bosqini natijasida 1873-yil 12-avgustda podsho hukumati nomidan Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman va Xiva xoni Muhammad Rahimxon II imzolagan, 18 banddan iborat Gandimiyon shartnomasi tufayli o‘z mustaqilligini yo‘qotib, Rossiya mustamlakasiga aylandi<sup>41</sup>. Xonlikning bosib olinishi natijasida moddiy va nomoddiy merosga munosabat o‘zgardi. Bu hodisa xonlikdagi adabiy jarayonlarga ham ta‘sir qildi. Xiva xonligiga yurish oldidan undagi madaniy boyliklarni qo‘lga kiritishning yo‘l-yo‘riqlari ishlab chiqildi. Sharqshunos X. Fren 1834-yilda O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan nodir qo‘lyozmalardan “Yuz asarning tadrijiy ro‘yxati” ni tuzib chiqqan<sup>42</sup>. Keyinchalik yevropalik sharqshunos Lerx Xiva xonligida nimalarga e‘tibor berish va qo‘lga kiritish mumkinligi haqida maxsus dastur ishlab chiqib, Turkiston general-gubernatoriga yuborgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligidan nafaqat madaniy yodgorliklar, nodir tarixiy, badiiy, axloqiy, ilmiy asarlar Sankt-Peterburgga olib ketilgan. Xiva yurishida qatnashgan A.Kun bevosita xon saroyidagi talon-taroj paytida noyob qo‘lyozma asarlar, xonlik arxiviga oid hujjatlarni to‘plash ishlariga boshchilik qiladi. U 1873-yil 18-dekabrda chop qilingan “Туркестанские ведомости” gazetasidagi “Xiva safari vaqtida qilingan ilmiy ish” nomli maqolasida shunday ma‘lumotlarni keltirib o‘tgan: Xiva ekspeditsiyasi vaqtida men quyidagi materiallarni to‘pladim: 300 kitob to‘plandi, shulardan 129 sarlavhalik 140 tomdan iborat tarixiy qo‘lyozmalar, 30 to‘pdan iborat sharq shoirlarning devonlari, 50 tomdan iborat 40 ta huquqiy-diniy asarlar, bundan tashqari, 18 ta Qur‘on va 50 ta darslik kitoblari to‘planganini ma‘lum qiladi<sup>43</sup>. Xonliklardan olib ketilgan ma‘naviy boyliklar orasida Xiva xonlarining arxivi taqdiri ham achinarli bo‘lgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Xiva xonligi saroyida adabiy va ilmiy muhit: ijodkorlar, xon avlodlari va manbalar an‘anasi” deb nomlanib uning “*Xiva xonligi saroyida xizmat qilgan ijodkorlar va ularning xonlik adabiy muhitida tutgan o‘rni: adabiy jarayon, she‘riy munozaralar*”, nomli paragrafida saroydagi adabiy jarayonlar, she‘riy munozaralarning adabiy muhitdagi o‘rni yoritib berilgan. Xorazm adabiy muhiti Muhammad Rahimxon II nomi bilan bog‘liq. Feruz o‘z saroyi muhitida davlat ishlari bilan shug‘ullanuvchi mansabdorlarni ham badiiy ijod qilishlarini, ilm va ma‘rifatli bo‘lishlarini istagan. Sababi, u o‘z saroyi muhitini temuriylar davriga, aniqrog‘i, ularning madaniy uyg‘onish

<sup>38</sup> Матякубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. – Б.187.

<sup>39</sup> Камиллов Н. Хорезмская школа перевода (проблемы типологии и сопоставительное исследование истории перевода в XIX в.): Дисс. ... док. филол. наук. – Тошкент: 1987.

<sup>40</sup> Бобожон Таррох Азизов - Ходим. Хоразм навозандалари. – Тошкент: 1994. – Б.15-16.

<sup>41</sup> Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 16.

<sup>42</sup> Алимова Д. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар). – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 327.

<sup>43</sup> Бекмуҳаммад У. Хоразм ва хоразмликлар. Иккинчи китоб. – Бухоро: Дурдона, 2022. – Б. 171.

zamoni - Husayn Boyqaro (1469-1506) hukmronligi davridagi Hirot muhitiga o'xshash bo'lishini xohlagan<sup>44</sup>. Xon o'z saroyida adabiy muhit muxlislari va ijodkorlarini to'playdi, Bayoniy ta'biri bilan aytganda, "ul hazrat ulamoni ko'p do'st tutar erdilar va she'riyati g'arro (jo'shqin nazm)ning irtivojiga sa'y etar erdilar va bag'oyat raiyatparvar va shafqatgustar va odilu fozil kishi erdilar va namozi panjagonani (besh mahal) avqoti panjagonada ado etmakka mudavomat etar erdilar"<sup>45</sup>. Hukmdorning bevosita homiyligi ostida saroyda iste'dodli shoirlar, sozandalar, xattotlar, muarrixlar yetishib chiqdi. Jumladan, saroyda Nosir To'ra, shoir Sodiq, Saidg'oziy, Muhammad Yusuf Bayoniy, shoir Mirzo, shoir Piri Komil, shoir Yusuf Hoji Oxun, shoir Ojiz Xudaybergan Oxun, shoir Ibadulla Panoh Oxun, shoir Muhammad Sharif Oxun, shoir Otaniyoz Qori Boboniyoz Oxun, shoir Habibulla, shoir Rog'ib, shoir Devoniy, shoir Mutrib Xonaxarob, shoir Ahmadjon Tabibiy, shoir Avaz O'tar, shoir Nodim, shoir Mulla Yusuf Qoramoni, shoir Muhammad Niyoz Mahsum kabi shoirlar ijod qilgan<sup>46</sup>.

Ma'lumki, Xiva xonlari tomonidan saroyda shoirlar ishtirokida an'anaviy she'rxonlik kechalari o'tkazib kelingan. Feruz bu an'anani davom qildirgan. Xorazmlik ijod ahli yig'ilgan she'riyat kechalarida xon o'z g'azallarini o'qigan, Ogahiy kabi shoirlarni mushoiraga chorlagan. Feruz o'tkazgan she'riyat kechalari mamlakatda juda mashhur bo'lgan, uzoq-yaqindan kelgan shoirlar xon majlislarini va she'riyat kechalarini bezay boshlagan<sup>47</sup>. Hukmdorlar tomonidan saroyda tashkil qilingan she'riyat va g'azalxonlik kechalarini Xorazm adabiy muhiti va adabiy majlislari tarixining "oltin davri" deyishimiz mumkin. Chunki, adabiy majlislar Xorazm adabiy muhiti namoyandalarining ilhom va ijod manbai bo'lib, bu adabiy yig'inlar, yetuk shoirlarning shakllanishiga, yangi asarlar va to'plamlar yaratilishiga, forscha asarlarning o'zbekcha tarjima qilinishiga sabab bo'lgan.

Ikkinchi bobning "*Saroy adabiy muhitida xon avlodlarining ijodiy faoliyati va ijod namunalari*" deya nomlangan ikkinchi paragrafida xon avlodidan chiqqan shoirlar faoliyati tahlil qilingan. Xorazmda hukmdorlik qilgan barcha sultonlar adabiyotni sevgan, san'atga qiziqqan, she'riyat va san'at ahlini qadrlashgan<sup>48</sup>. Bu sulolaning she'riyatga ixlosi baland bo'lgan vakillari Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon I, Olloqulixon, Sayyid Muhammad Bahodirxon, Muhammad Rahimxon II lar sanaladi. Eltuzarxon (1804-1806) – qo'ng'irotlar sulolasining birinchi vakili, uning hukmronligi davrida saroyda adabiy muhit shakllandi. Tadqiqotchi J. Ismatilloevning yozishicha, Eltuzarxon davrida ilm, adabiyot va san'at ahliga e'tibor kuchaygan. Muhammad Rahimxon I (1806-1825), manbalarda keltirilishicha, u ham bir qator she'rlar yozgan.

<sup>44</sup> Erkinov A. Muhammad Rahimxon II va uning saroyi adabiy muhiti // Antik davr sivilizatsiyasi taraqqiyotida Xorazmning o'rnini. Respublika ilmiy anjumani materiallari (2011-yil 20-may, Urganch –Xazoras). – Xiva: 2011. – B.104-106.

<sup>45</sup> Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Т.: Камалак, 1991. – Б. 259.

<sup>46</sup> Матякубова М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. – Б. 36.

<sup>47</sup> Мухаммад Ризо Огаҳий. "Шоҳиду-л-иқбол". – Т.: Мухаррир, 2009. – Б. 33-34.

<sup>48</sup> Qorayev Sh. Xivaning adabiyotsevar xonlari – aka - uka Eltuzar hamda Muhammad Rahimlar huzurida o'tkazilgan adabiy majlislar// Tadqiqotlar. UZ: Vol. 37 No. 4 (2024): Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. – № 37. 4-qism. – B. 136-144.

“Muntaxab at-tavorix” nomli maqolada qayd etilishicha, u g‘azallar ham bitgan, shoirlar bilan mushoira kechalarini tashkil etgan, bu kechalarni Munis boshlab bergan<sup>49</sup>. Olloqulixon (1825-1842) – otasidagi eng yaxshi xislatlar Olloqulixonida ham bo‘lgan. Ogahiy buni “Riyozi ud-davla” asarida shunday ta’riflaydi: “Oz fursatda umum aqli va naqshig‘a mahorati tamom hosil qildi. Xususan, tavorixvonlig‘ va she’rshunoslig‘ va latifago‘ylik o‘quvining haylida diqqat tirnog‘in andog‘ ishlatur erdikim, fuzaloyi zamong‘a hayrat barmog‘in tishlatur erdi”<sup>50</sup>. Sayyid Muhammad (1856-1864) - adabiyotsevar hukmdor, uning davrida xonlikda tinchlik hukm surdi, shu sababdan xalq ichida va xon saroyida musiqaga e’tibor kuchaygan. “Bu xonning o‘zi ham dutor, g‘ijjak sozlarini chertmoqqa oshno edi. Tez-tez musiqashunoslar bilan bazm majlislari qurar edi”<sup>51</sup>. Muhammad Rahimxon II shahzoda va shoirlar ijodiga alohida e’tibor qaratib, “Haft shahzoda” nomli to‘plam tuzdirgan, unda o‘z og‘ayni, jiyanlari ijodidan namunalar bergan<sup>52</sup>. To‘plamni tuzishda Alisher Navoiyning “Majolis an-nafois” to‘plami namuna vazifasi bajargan. Feruz o‘z farzandlari, nabiralari, jiyanlari xuddi Temur avlodlari singari she’r yoza olishini aytmoqchi bo‘lgan. Darhaqiqat, temuriylardan keyin eng ko‘p shoir-shahzodalar aynan uning hukmronligi davrida paydo bo‘lgan<sup>53</sup>. Laffasiyning yozishicha, xon o‘z yaqinlarining ijodiga qiziqqan, ularning tarbiyasi va ta’lim olishi uchun maxsus kishilarni tayinlagan<sup>54</sup>. Bu davrda badiiy ijod uchun yaratilgan shart-sharoit natijasida Xiva xonlari oilasidan Bayoniy, Xusrav, Murodiy, Komyob, Farrux, Oqil, Sodiqiy, Sultoniy, G‘oziy, Sa’diy, Asad kabi shoirlar va boshqalar<sup>55</sup> yetishib chiqqan. Bugungi kunda shahzoda shoirlarning devonlari O‘zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida, Xorazm Ichan qal‘a qo‘lyozma fondida va Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik fondida saqlanmoqda.

Ikkinchi bobning “*Saroy madaniy hayoti va davlat homiyligining adabiy va madaniy jarayonlarga ta’siri: tarixnavislik va tarjima maktabi, qo‘lyozmalar, xattotlik, matbaachilik*” deya nomlangan uchinchi paragrafida saroy madaniy hayotida tarixnavislik va tarjima, xattotlik, matbaachilikning ahamiyati yoritilgan. Xorazmda qadimdan davom qilib kelgan an’ana bu shajaraviy tarixnavislikdir. Hukmdor xonlar ilm-ma’rifatli kishilarga o‘z davri tarixini yozishni buyurganlar, barcha tarixiy asarlar hukmdorning topshirig‘iga binoan yozilgan. Xorazm tarixnavislik maktabi asoschisi,

<sup>49</sup> Saparbayev B. Muhammad Rahimxon I (1806-1825) hukmronligi davrida Xiva xonligining mustahkamlanishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2024-yil № 1). <https://doi.org/10.53885/edinres.2024.01.1.006>.

<sup>50</sup> Огахий. “Риёз уд-давля” Ўз ФАШИ. к.ф. Инв. 5364 II – Б. 256-а.

<sup>51</sup> Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. – T.: Yozuvchi, 1998. – B.11.

<sup>52</sup> Матякубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. – Б.104.

<sup>53</sup> Эркинов А. «Хафт шу’ара-йи Фируз-шахи» (Семь поэтов из окружения шаха Фируза) поэтическая антология принцев-поэтов династии Конграт (Хива, 1906 г.). Азия и Африка в меняющемся мире 22-24 апреля 2015 г. Тезисы докладов. – Санкт-Петербург, 2015. – С.127.

<sup>54</sup> Дўстова С. Ҳасанмурод Лаффасийнинг «Тазкираи шуаро» асари унинг қиёсий-матний тадқиқи. – Жиззах, 2021. – Б. 88.

<sup>55</sup> Quyida surgun qilingan o‘n to‘raning ro‘yxatini keltiramiz: Said Abdullaxon to‘ra, Muhammadyor to‘ra, Ibodulla to‘ra, Nosir to‘ra, Muhammad Yoqub to‘ra, Sa’dulla to‘ra, Abdurasul to‘ra, Said to‘ra, Hoji to‘ra, Rahmatullo to‘ra.

Abulg‘ozi “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima” nomli tarixiy asarlarning muallifidir. “Shajarayi tarokima” asari (1658-1661-yil) turkiy qabilalarning, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma’lumot beradi. Asar Abulg‘ozixonning so‘zlariga qaraganda, turkman mullalari, shayxlari va beklarining iltimosi bilan yozilgan<sup>56</sup>. Ikkinchi asari “Shajarayi turk” 1663-1664-yillarda yozilgan. Unda Xorazmning XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etilgan. Abulg‘ozidan so‘ng Munis (1778-1829) Xiva xoni Eltuzarxon buyrug‘iga binoan “Firdavs ul-iqbol” asarini yozgan. Uning asari qadim zamonlardan boshlab, 1825-yilgacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi. Bu asar muqaddima, besh bob va xotimadan iborat. Munis ishlarini shogirdi Ogahiy (1809-1874) davom ettiradi. Ogahiy “Firdavs ul-iqbol” asarini 1839-1840-yillarda yozib tugatadi. “Firdavs ul-iqbol” ning 1813-yildan 1825-yilgacha bo‘lgan voqealarni bayon etuvchi qismi, “Riyoziy ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jomi’ ul-voqeoti sultoniy”, “Gulshani davlat”, “Shohid ul-iqbol” nomli asarlar Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansubdir<sup>57</sup>. “Firdavs-ul-iqbol” asari o‘z tuzilishi bo‘yicha sulolaviy tarixnavislikning namunasi sifatida qaraladi. Keyinchalik Xorazm tarixini yozishni davom ettirish Bayoniyga (1858-1923) topshirilgan. Bayoniy 1911-yili “Shajarayi Xorazmshohiy”, “Xorazm tarixi” nomli asarlarini yozadi. U tarixiy asarlari bilan Xorazmda davom etib kelgan tarixnavislik an‘analarini davom ettirdi<sup>58</sup>. “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida Munis va Ogahiy tomonidan tavsiflangan qadimgi davrdan to 1873-yilgacha bo‘lgan tarixiy voqeliklarning bayoni bilan birga, 1873-yildan 1914-yillargacha bo‘lgan voqealar ham tasvirlanadi<sup>59</sup>. “Xorazm tarixi” asari “Shajarayi Xorazmshohiy”dagi voqealarni to‘ldirgan. Asarda Asfandiyorxon hukmronligi davri va undan keyin ro‘y bergan voqealar tasvirlangan. Bu davrda tarixnavislik bilan birga tarjimonlik ham taraqqiy qildi, asosan arab, fors, ozarbayjon va usmonli turk tillaridan 150 dan ortiq asarlar tarjima qilinib, o‘zbek xalqining ma’naviy mulkiga aylandi<sup>60</sup>. Tadqiqotchi M.Matyakubovaning yozishicha, bu davrda xonlikda Munis va Ogahiy, Dilovarxo‘ja, Sayid Homid to‘ra, Bobojon to‘ra Azizov, Sodiq Rahmonquli, Ahmadjon Tabibiy, Nadimiy, Domullo Muhammad, Domullo Abdulqodir ibn Muhammadnazar, Domullo Bekmuhammad, Domullo Otajonxo‘ja maxdum, Muhammadsharif Oxund, Hamdamiy, Tolibxo‘ja, Sodiq Rahmonquli to‘ra kabi tarjimonlar faoliyat olib borganlar<sup>61</sup>. XIX

<sup>56</sup> Эшмуродов М., Бекмухаммад У. Хоразм тарихидаги жараёнлар ва тарихнавислик. – Бухоро: Дурдона, 2023. – Б. 116.

<sup>57</sup> Муниров. Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари) – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б. 4.

<sup>58</sup> Ҳасаний С. Хоразм маърифати олам кўзгуси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 294.

<sup>59</sup> Матякубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва қутубхона тарихи. – Б. 67.

<sup>60</sup> Шакирова Ш. Хоразм тасаввуф адабиётида Бобожон Санойининг илмий фаолияти. www.journal.fledu.uz Илмий-методик электрон журнал. – Б. 177.

<sup>61</sup> Матякубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва қутубхона тарихи. – Тошкент, 2012. – Б. 154.

asrning o'rtalarida Xorazmda 80 dan ortiq adib, olim-u fuzalo muntazam ravishda tarjima ishlari bilan shug'ullangan<sup>62</sup>.

Tadqiqotlardan ko'rildiki, Xiva xonligidagi qo'lyozma kitoblar o'zining salobati, bejirim naqshlari va donishmandlik ramzi hisoblangan qora charmdan qilingan muqovalari bilan ajralib turgan. Chunki O'rta Osiyoning boshqa hududlarida bunday muqovalar ishlanmagan<sup>63</sup>. Bu davrda xonlikda mingdan ortiq qo'lyozma asarlar qayta yozilgan. Xiva saroy kutubxonasi qo'lyozmalari ro'yxatida (fixrist) ana shu qo'lyozmalarning bir qismi ko'rsatilgan<sup>64</sup>. N.Toshovning ma'lumotlariga ko'ra, Xiva xonligi saroyi shu davrda qo'lyozmalar yaratish markaziga aylangan<sup>65</sup>. Kitob va qo'lyozmalarning yaratilishida xattotlarning o'rni katta. Saroydagi xattotlar bo'linmasi birinchi qavatida ikkita yorug' xona bo'lib, ularga gilamlar to'shalgan, undan saroy bog'iga chiqish yo'li bo'lgan. Guldor naqshlar bilan bezalgan pasttakina maxsus xontaxta ustida xattotlar uchun muattar hidli atirlar solingan idishchalar terib qo'yilgan<sup>66</sup>. A.Murodovning asarida Xorazm xattotlik maktabi namoyandalaridan 58 nafar xattot haqida qisqacha ma'lumot berilgan va 26 nafar xattotning nomi zikr qilingan<sup>67</sup>. H.Aminovning aniqlashicha, keyingi to'rt asr mobaynida Xorazmda 200 dan ortiq xattot faoliyat olib borgan<sup>68</sup>. A.Nosirov asarida xorazmlik 86 nafar xattot nomini keltirishdan tashqari Xorazm qo'lyozmalari, ularning O'zR FA ShIga olib kelinishi hamda diniy, adabiy, tarixiy asarlar haqida ma'lumotlar bergan<sup>69</sup>. Feruz tashabbusi bilan saroy kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozmalarni kitob shaklida chop qilish uchun 1874-yilda Eron dan litografiya anjomlari Xivaga olib kelinadi. Eronlik maxsus matbaachi Ibrohim Sulton litografiyada dastlabki ishlarni amalga oshirgan va matbaachilik qilgan<sup>70</sup>. Saroydagi "Podshohi zamon tipolitografiyasi" boshlig'i saroy tarixchisi Ahmadjon Tabibiy bo'lib, ushbu sho'baning ilk mahsuloti 1876-yilda chop etilgan Abu Nasr Forobiyning "Nisob us-sibiyon" (Bolalar nasibasi) asari edi. Bu toshbosmani mahalliy matbaachi Otajan Abdalov boshqargan<sup>71</sup>. Bu davrda Xiva xonligida yana bir bosmaxona bo'lib, u Petro-Aleksandrovska (To'rtko'l) dagi

<sup>62</sup> Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 192.

<sup>63</sup> Матёкубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи: Фан. ном. дисс... автореф. – Тошкент: 2008. – Б. 19.

<sup>64</sup> А. Erkinov and Sh. Vahidov, "One source." Более подробно о библиотеки хивинского двора см. литературу из библиографии данной книги.

<sup>65</sup> Тошов Н. По следам дворцовой библиотеки: рукописная культура в Хорезме при конгратах. copyright© Austrian Academy of Sciences, Vienna, 2023.

<sup>66</sup> Хива – минг гумбаз шаҳри. – Т.: Шарк, 1997. – Б. 90.

<sup>67</sup> Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Фан, 1971. – 197.

<sup>68</sup> Эркинов А.С., Полвонов Н., Аминов Х.А. Мухаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси феҳристи (Хоразмда китобат ва кутубхоначилик тарихидан). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 10.

<sup>69</sup> Носиров А. Хоразмга оид манбалар. 1 ва 2-жилд. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти асосий қўлёзмалар фонди (кейинги ўринларда ЎЗР ФА ШИ қўлёзмалар фонди), инвентар № 13423, 13424.

<sup>70</sup> Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Б. 97.

<sup>71</sup> Allworth, Edward. Central Asian Publishing and the Rise of Nationalism. New York, 1965. – С. 10-14; Язбердиев, Алмаз. Арап графикасинде нешредилен Туркменче китаплар. – Ашхабад, 1981. – С. 22-27; Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературе. II: Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня // Известия Академии Наук Туркменской ССР, сер. общественных наук. Вып. 1, 1981. – С. 82.

S.V.Novikov matbaasi edi. Ushbu bosmaxona o‘zining tuzilishi va chop etgan mahsulotlari bilan boshqa kichik vaqtli matbuot bosmaxonalaridan farq qilmagan<sup>72</sup>.

Dissertatsiyaning “XX asr boshlarida Xivada ma’rifat va adabiy muhit: ilmiy infratuzilma va jadidchilik ta’siri” nomli uchinchi bobining birinchi paragrafi “*Madrasa, kutubxona va ilmiy markazlar faoliyati-adabiy muhit infratuzilmasi*” deb nomlanadi, bu paragrafda xonlikda madrasalar va kutubxonalar faoliyati tahlil qilingan. Mahalliy tarixchilar Ogahiy va Bayoniyning bergan ma’lumotiga ko‘ra, XIX asr o‘rtalarida Xivadagi madrasalar soni 22 taga yetgan. XX asr boshida Xiva xonligining o‘zida 130 ta madrasa bo‘lib, madrasalarda tahsil oladigan talabalar soni 2300 kishidan ziyod bo‘lgan<sup>73</sup>. Arxivda saqlanayotgan 8 varaqdan iborat hujjatda XX asr boshida Xivadagi 56 ta madrasada 120 nafar mudarris, 3300 nafar talaba bo‘lganligi qayd etilgan<sup>74</sup>. Ba’zi manbalarda XX asrning boshlarida Xivaning o‘zida 65 ta madrasa bo‘lib, ularning 10 dan ortig‘i XVIII-XIX asrlarda xonlar tomonidan, 20 dan ortig‘i xonning qarindoshlari tomonidan, qolganlari esa xon amaldorlari va yirik islom ulamolari tomonidan qurilgan edi. O‘sha davrda bu madrasalarda 2440 kishi ilm olgan<sup>75</sup>, degan ma’lumotlar mavjud. Madrasalar musulmon oliy o‘quv yurtlari hisoblanib, maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Arxiv hujjatlari va bir guruh tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, Xiva madrasalarida Muhammad Yusuf hoji (Doiy), Xudoybergan Oxund, Muhammad Yoqub Oxund, Muhammad Sharif Oxund, Muhammad Yusuf Oxund va boshqa bir qator olim-u fozillar mudarrislik qilib yoshlarga ta’lim-tarbiya berganlar<sup>76</sup>. Xiva madrasalarining har birida kutubxonalar bo‘lib, barcha madrasalar baland peshtoqining orqa tomonida, ikkinchi qavatning tepa qismidagi hujralarda madrasalar uchun ahamiyatli bo‘lgan kitoblar saqlanadigan xona va unga yonbosh qilib kitobdor hujrasi joylashgan va madrasa kutubxonalaridagi kitoblar ikki qismga ajratilgan holda saqlangan<sup>77</sup>. Xon shoirtabiat va san’atga ixlosi baland nozik didli kishi bo‘lganidan Tozabog‘dagi saroyida va Ko‘hna Arkda shaxsiy kutubxonasi bo‘lib, u yerda dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan noyob kitoblar saqlangan<sup>78</sup>. 1908-yili Xivaga tashrif buyurgan sharqshunos Samoylovich safari davomida xon tomonidan saroyda tashkil etilgan Tozabog‘dagi kutubxonada bo‘ladi va bu kutubxona unda katta taassurot uyg‘otadi<sup>79</sup>. Muallifning “Xiva saroyi kitob asrovxonasi va toshbosmasi” degan asarida Isfandiyor to‘ra<sup>80</sup> va bosh vazir Islomxo‘janing kutubxonasi borligini

<sup>72</sup> Маткаримова С. Хива хонлигининг кўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги. – Урганч, 2018. – Б. 77.

<sup>73</sup> Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси (Тарихий-этнографик лавҳалар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 203.

<sup>74</sup> ЎзР МДА, 125-жамғарма, 1-рўйхат, 596-иш, 1-8-варақ.

<sup>75</sup> ЎзР МДА, 125-фонд, 1-рўйхат, 596-иш, 2-варақ.

<sup>76</sup> ЎзР МДА, 125-жамғарма, 2-рўйхат, 30-иш, 1-варақ; Ҳасанов С. Хоразм Маъмун академиясининг олис-яқин юлдузлари. – Б.171.

<sup>77</sup> Yusupov N. XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari: Tarix fanlar bo‘yicha falsafa doktori. diss.. – Urganch, 2024. – B. 95.

<sup>78</sup> Абдурасулов А. Хива. – Б. 98.

<sup>79</sup> Матёкубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. – Тошкент, 2012, – Б. 87.

<sup>80</sup> Самойлович А.Н. Хивинская придворная книгохранилища книгопечатня Ханская библиотека в Хивинском замке (аркь) Рукописи Исфандияр тюр. – РНБ., Ф.671, ед.хр.145.

hamda ikki saroy a'yoni unga kitoblar hadya qilganligini, qo'llarida saqlanayotgan qo'lyozma kitoblarni ko'rsatganliklarini yozib qoldirgan<sup>81</sup>.

Uchinchi bobning "*Xivada yangi usul maktablari va yosh ziyolilar faoliyati*" nomli ikkinchi paragrafida Xiva xonligida yangi usul maktablari, yosh ziyolilar faoliyati tahlil qilingan. Jadidchilik harakati Xiva xonligida XIX asr oxirlarida vujudga kelgan, ushbu ma'rifatparvarlik harakati rahnamosi Muhammad Rahimxon II hisoblanadi. Xiva jadidchiligi marifatparvarligining rivojlanishida dastlabki davrda Komil Xorazmiyning (1825-1899) o'rni beqiyosdir. 1883-yilda Komil Xorazmiy Muhammad Rahimxon bilan birga Moskva, Peterburg shaharlarida bo'lib, rus xalqi madaniyati va hayotini o'rganadi hamda ilg'or madaniyat, san'at namunalarini Xivada ham yo'lga qo'yish kerakligini aytadi<sup>82</sup>. Uning tashabbusi bilan xon saroyida 1891-yil birinchi rus-tuzem maktabi ochilgan<sup>83</sup>. Komil Xorazmiy tashabbusi bilan yuzaga kelgan maktab F.Ernazarov tadqiqotida 1880-yil, D.Bobojonov va Abdurasulovlar risolasida 1884-yil deb ko'rsatilgan<sup>84</sup>. Davlatyor Rahim va Shixnazar Matrasullar maktabning 1891-yil ochilganligini ta'kidlaydilar. Tadqiqotlar jarayonidagi tahlil rus-tuzem maktabining 1891-yil ochilganini ko'rsatdi.

Shu maktabda bo'lgan rus rassomi L.E.Dmitriyev - Kavkazskiy o'z xotiralarida maktab va o'quvchilar haqida ma'lumotlarni keltirgan. Xivadagi rus-tuzem maktabining asosiy maqsadi mahalliy millat bolalariga rus tilini o'rgatish, mahalliy tarjimonlar tayyorlashdan iborat edi<sup>85</sup>. XX asr boshlarida xonlikda jadid maktablari ham paydo bo'ladi. Xiva xonligida yangi usul maktablarining ochilishida Husayn Qo'shayev va Qozondagi Olimjon Borudiy madrasasidan kelgan tatar muallimlari faol ro'l o'ynagan, keyinchalik mahalliy jadidlarning maorif yo'lidagi faolligi ortdi<sup>86</sup>. Xonlikdagi jadid usulidagi maktab haqida F.Ernazarov maktabning 1904-yilda ochilgani va unda 55 nafar bola o'qigani, keyinchalik maktablar soni 8 taga yetib, o'quvchilar soni 200 nafardan oshgani haqida ma'lumot beradi<sup>87</sup>. 1906-1907-yilda Urganchda qizlar maktabi tashkil qilingan va ularda H.Qo'shayev va uning turmush o'rtog'i K.Qo'shayevalar bilim bergan<sup>88</sup>. Xiva xonligining turli shaharlarida H.Qo'shayevning ta'siri ostida 1906-yilda

---

<sup>81</sup> Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературы. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня. ... – С. 82.

<sup>82</sup> Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 55 – 60.

<sup>83</sup> Маткаримова С. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги (XIX – XXI аср боши). – Урганч, 2018. – Б. 74.

<sup>84</sup> Эрнazarов Ф.Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигида маданий ҳаёт: Тарих фан. номз. дисс... автореф. – Б.16; Бобожонов Д., Абдурасулов М. Фирдавсмонанд шаҳар. – Б. 52.

<sup>85</sup> Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 35.

<sup>86</sup> Холбоев С. Туркистон жадиdчилиги – миллий уйғониш даври тарихи. – Наманган: 2012. – Б. 43.

<sup>87</sup> Эрнazarов Ф.Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигида маданий ҳаёт: Тарих фан. номз. дисс... автореф. – Б.16-17.

<sup>88</sup> Маткаримова С.М. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги (XIX – XXI аср боши). – Урганч, 2018. – Б. 75.

To'rtko'lda, 1910-yilda Gurlanda, Shovotda, qishloqlardan Chandir-Qiyot (Urganch rayoni)da yangi usuldagi maktablar tashkil qilinadi<sup>89</sup>.

Xorazmdagi jadid maktablarining tashkil etilishi Buxoro va Turkiston jadid maktablaridan farq qiladi. Buxoro va Turkistonda jadid maktablarining paydo bo'lishiga hukumat vakillari, amir, qushbegi, qozikalonlar qarshilik qilgan bo'lsa, Xorazmdagi jadid maktablarining asos solinishiga, aksincha, hukumatning o'zi boshchilik qilgan, ammo mahalliy o'qituvchilar orasida bu o'qitish usuli keng tarqalmagani jadid maktablarining Xorazmda ko'payishiga imkon bermagan.

Uchinchi bobning uchunchi paragrafi "*XX asr boshlarida Xiva adabiy muhitida jadidchilik va yangilanish g'oyalari*" deya nomlanadi, asosan, bu paragrafda jadidlar va ularning adabiy merosi tahlil qilingan. Xorazm jadidchilik harakatida matbuotning yo'lga qo'yilmaganligi, o'z gazeta va jurnallarini nashr etishmaganligi, o'z qarashlaridan ko'proq aholining yuqori va o'rta qatlam vakillari xabardor bo'lgani, oddiy qatlam vakillarining jadidchilik g'oyalari, harakatlari bilan har doim tanishish imkoniyatiga ega bo'lmaganligini ko'rishimiz mumkin<sup>90</sup>. Professor Begali Qosimov "Milliy uyg'onish" asarida yozganidek, "jadid adabiyoti mohiyatan yangi adabiyot edi. Chunki u qarashlarni yangiladi, fikrlarni, yangiladi, o'zlikni qaytardi"<sup>91</sup>. Manbalarda madaniy-hududiy tamoyillar asosida Xorazm jadid adabiyoti davri shartli ravishda ikki bosqichga ajratiladi: birinchi bosqich – XIX asrning 80-yillaridan 1920-yilgacha; ikkinchi bosqich – 1920-yildan 1938-yilgacha. Ushbu tasnifda har bir bosqichga xos xususiyatlar davr xarakteri bilan bog'liq holda umumo'zbek jadidchilik qarashlari kontekstida aks etadi. Shu jihatdan birinchi bosqichni ikki qismda ko'rish mumkin: birinchisi – XIX asr oxirlaridan 1910-yilgacha; ikkinchisi – undan keyingi 1920-yilgacha bo'lgan davr. Bularning har ikkalasi uchun ham mushtarak xususiyat, avvalo, Feruzning ma'rifat va adabiyot ravnaqi yo'lidagi homiyligi, amaliy faoliyati hisoblanadi.

Xorazm jadid ijodkorlari bisotida, asosan, she'riyat, tarjima va musiqa sohasi namunalari ustuvor bo'lib, asarlarning bir qismi fors tilida ham yozilardi. Shuningdek, ular matbuot, ta'lim, madaniyat, san'at jabhalarida faoliyat ko'rsatdilar. "Inqilob quyoshi", "Xorazm xabarlari" gazetalari, 1920-23-yillarda "Xorazm bolalar adabiyoti", "Yosh qalamkashlar kuylaydilar", "Yug'urmiya" nomli to'plamlarda o'z asarlarini e'lon qildilar.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, 1914-yilda tashkil topgan yosh xivaliklar partiyasining raisi qilib saylangan<sup>92</sup> Polvonniyoz Hoji Yusupov (1861-1936) zamonaviy maktablar ochilishini, savodsizlikka qarshi kurashishni, gazeta-jurnallar orqali xalqni uyg'otishni harakatlarining markaziga qo'ydi. Uning xotiralari 1926-yilda yuzaga keladi, u 644 betdan iborat bo'lib, unda muallif o'zi ko'rgan, kuzatgan, o'z boshidan kechirgan Xorazmdagi, shuningdek, Turkiston o'lkasidagi voqelikni qalamga

<sup>89</sup> Рўзимова Ф. XIX аср охири XX бошларида "Ёш хивалик"ларнинг маънавий-маърифий жадидчилик ҳаракатлари. – Урганч, 2017. – Б. 75.

<sup>90</sup> Yusupova L. Xorazm jadidchilik harakatining O'rta Osiyo jadidchiligi tarixida tutgan o'rni. Volume: 2 Issue: 8.

<sup>91</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: 2002. – Б. 124.

<sup>92</sup> Xorazm tarixi. II tom. – Urganch, 1997. – B.13.

oladi<sup>93</sup>. “Xotiralar” tarzida yozilganligi uchun kitobga nom, mavzu, bob qo‘yilmagan. Asar, asosan, “Yosh xivaliklar” partiyasining demokratik faoliyatiga, uning xon istibdodini ag‘darib Xorazmda mustaqil xalq jumhuriyatini barpo qilish va uni mustahkamlash ishlariga bag‘ishlangan<sup>94</sup>.

XX asr birinchi choragida Xiva xonligi siyosiy, madaniy hayotida katta ro‘l o‘ynagan yosh xivaliklar partiyasi a‘zolaridan yana biri Boboovun Salimovdir (1874-1929). “Boboovun Salimov nafaqat xonlik va respublika davrining mashhur huquqshunosi, elchi, balki “Ojiz” taxallusida ijod qilgan jadid shoiri, maktablar uchun “Alifbe”, “O‘qish kitobi” darsliklari yaratgan pedagog ham bo‘lgan”<sup>95</sup>. Uning hayoti haqida tarixchi Jumaboy Rahimov yozganiday “Chaqmoq kabi chaqnab o‘tdi. U g‘oyat mushkul bir paytda haq va haqiqat uchun kurash yo‘liga kirdi”... Uning nomi shuning uchun ham Vatan tarixida o‘chmas iz qoldirdi<sup>96</sup>.

## XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Xiva xonligi saroyi adabiy muhitining qamrovi va maydoni keng bo‘lib, bu muhit haqida nafaqat mahalliy tarixchilar, balki xonlikka kelgan xorijiy elchilar va sayyohlar o‘z kundaliklari hamda asarlarida ma‘lumotlar keltirib o‘tishgan. Xonlikda an‘anaviy davom qilayotgan adabiy muhit, qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi davrida yanada taraqqiy qilgan.

2. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida erishilgan madaniy yutuqlarning ahamiyati shundaki, Xiva xonligi bu davrda Rossiya imperiyasi bosqiniga duchor bo‘lib, moddiy va ma‘naviy boyliklari ular tomonidan talon-taroj qilingan. Bu aholining madaniy va ma‘naviy ahvoliga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ana shunday vaziyatda ham xonlik hukmdorlari xalqning milliy madaniyatini saqlab qolishiga, o‘zligini anglashiga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shdilar.

3. XIX asrning 70-yillarida saroyda tashkil qilingan she‘riyat va g‘azalxonlik kechalari Xorazm adabiy muhiti va adabiy majlislari tarixining “oltin davri” bo‘lgan. Bu adabiy yig‘inlar yetuk shoirlarning shakllanishiga xizmat qildi. Hukmdor tomonidan saroyda o‘tkazilgan adabiy kechalar orqali yangi asarlar va to‘plamlar yaratildi, forscha asarlar o‘zbekchaga tarjima qilindi.

4. Xorazm hukmdori homiyligi asosida yaratilgan adabiy muhit barcha shoir va ijod ahllari uchun eng sarmahsul ijod namunalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Ular yaratgan bayoz, devon va tazkiralari, tarjima va tarixiy asarlar o‘zbek xalqining ma‘naviy merosi durdonalariga aylandi.

5. Muhammad Rahimxon II farzandlari va nabiralari badiiy ijod bilan shug‘ullanishgan, adabiyotni sevishgan, har bir shahzodaning atrofida ko‘plab saroy

<sup>93</sup> Самандар С., Бекмухаммад У. Хоразм жадид намояндалари: хаёти, фаолияти ва адабий мероси. – Урганч: Milleniumus print, 2024. – Б. 83.

<sup>94</sup> Юсупов Полвонниёз Хожи. "Ёш хиваликлар" тарихи (хотиралар). – Урганч, 1999. – Б. 4.

<sup>95</sup> Самандарова С., Бекмухаммад У. “Хоразм жадид мактаблари”, Milleniumus print, 2025. – Б. 180.

<sup>96</sup> Бекмухаммад У. Хоразм ва хоразмликлар. Биринчи китоб. – Бухоро: Дурдона, 2022. – Б. 101.

shoirlari bo'lgan. Xiva xonlari va shahzodalari ana shu shoirlar ishtirokidagi adabiyot va g'azalxonlik kechalaridan zavqlanishgan va ko'ngil yozishgan. Ularning she'riyatga bo'lgan muhabbati va e'tiborlari adabiyotimiz hamda tariximiz taraqqiyotiga xizmat qilgan.

6. Xorazm jadidlari ta'lim, adabiyot va san'atni rivojlantirish orqali o'zlarining ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini keng tarqatishga, jamiyatdagi barcha aholi qatlamlarini birlashtirishga, demokratik islohotlarni amalga oshirishga intilganlar. Ular yaratgan adabiyot va san'at asarlari Xorazm adabiy muhitini yanada boyitdi.

Tadqiqot natijalari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

Xiva xonligidan Rossiya mustamlakasi davrida tashib ketilgan moddiy, madaniy va ma'naviy boyliklar hamda ilmiy asarlarning mukammal ro'yxatini tuzib chiqish, ularning qayerdaligini aniqlash va yurtimizga qaytarish masalasi ham madaniy merosimizni tiklash sohasidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiyalar bilan bir adabiy muhitda faoliyat olib borgan Sultoniy, Sa'diy, G'oziy, Asad, Murodiy, Sodiq, Farrux, Oqil kabi xon oilasidan chiqqan ijodkorlar devonlari qo'lyozmalari yetarlicha o'rganilmagan. Shahzoda shoirlar devonlari qo'lyozmalarining o'zaro matniy qiyosiy tadqiqi va tahlilini amalga oshirish o'zbek adabiyoti va tarixini yanada to'ldiradi hamda bu davrning madaniy, adabiy muhitini o'rganadigan tadqiqotlar uchun muhim manba bo'ladi.

Xivalik ijodkorlar tomonidan yaratilgan yuzlab asarlar va tarjimalar bugungi kunda dunyoning turli xazina va kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularning aksariyati o'rganilmagan, mualliflari yoki tarjimonlari haqida ma'lumotga ega emasmiz, ba'zi qo'lyozma kitoblarning taqdiri esa noma'lum. Bu kabi asarlar va qo'lyozma kitoblarni topish va tarjima qilish kelajak avlod uchun mustahkam poydevor bo'lishi, shubhasiz.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАН БЕРУНИ**  

---

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ  
РАЙХАН БЕРУНИ**

**АХМЕДОВА НАЗОКАТ ФАРХОД КИЗИ**

**ЛИТЕРАТУРНАЯ СРЕДА ДВОРЦА ХИВИНСКОГО ХАНСТВА (ВТОРАЯ  
ПОЛОВИНА XIX ВЕКА - НАЧАЛО XX ВЕКА)**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**УРГЕНЧ - 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за В2024.3.PhD/Tar1998.**

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете по имени Абу Райхан Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Матякубова Муборак Мадримовна  
кандидат исторических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** Халикулов Ахмаджон Боймахамматович  
доктор исторических наук, профессор

Сатимов Баходир Манглибай угли  
доктор философии исторических наук, доцент

**Ведущая организация:** Каракалпакский государственный университет


Защита диссертации состоится « 09 » сентябрь 2025 года в 14 : 00 часов на заседании Учёного совета PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 по присуждению учёных степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхан Беруни. Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхан Беруни (зарегистрировано за № 888 ). (Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00). e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Автореферат диссертации разослан « 21 » ноябрь 2025 года  
(реестр протокола рассылки № 18 от « 21 » ноябрь 2025 года).



  
**М. К. Сарыбаев,**  
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, доцент

  
**Х. Х. Матякубов,**  
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, доцент

  
**У. И. Абдуллаев,**  
Председатель научного семинара при Ученом совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В условиях глобализационных процессов, наблюдающихся в современном мире, изучение и сохранение культурного наследия, сформировавшегося как результат развития исторической, литературной и культурной жизни, приобретает особую значимость. Исследование деятельности и творческого наследия исторических личностей, правителей, ученых и мыслителей, внесших вклад в развитие культурных процессов, служит важным основанием для укрепления научных и культурных связей между различными народами и государствами, а также способствует всестороннему изучению государственного управления и научно-просветительского развития. Глубокое исследование жизни и деятельности выдающихся личностей, получивших признание мирового сообщества за вклад в развитие науки, культуры и государственности, представляет собой одну из актуальных задач современной мировой историографии.

Хивинское ханство – государство, оставившее значительный след в истории Средней Азии, её социально-экономической, политической и культурной жизни, международных отношениях. Культурно-литературная среда ханства требует изучения как отдельного объекта исследования. После обретения независимости современные научные направления истории поднялись до уровня государственной политики. Вопрос о литературной среде двора Хивинского ханства во второй половине XIX – начале XX века также относится к числу недостаточно изученных тем.

В период правления династии Кунгратов культурная и литературная жизнь Хивинского ханства переживала заметный подъём: активно развивались поэзия, книжное дело, каллиграфия, историописание, переводческая деятельность и литография. До российского вторжения культурные процессы в ханстве развивались в относительно устойчивом русле. Однако военная экспансия Российской империи оказала серьёзное влияние на социально-политическую ситуацию: ханство утратило свою политическую самостоятельность. Несмотря на эти противоречивые и сложные условия, развитие культуры, искусства, литературы, музыковедения и исторической науки не прекратилось. Это во многом связано с тем, что в данный период во главе Хивинского ханства стоял Мухаммад Рахимхан II (Феруз) – просвещённый правитель, покровитель учёных и деятелей искусства, талантливый музыковед и поэт, оставивший значительный след в культурной истории региона. Комплексная и объективная оценка его деятельности является важной и востребованной задачей современного научного исследования. Как подчёркивает Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев: «Оценка прошлого должна быть объективной, прежде всего свободной от различных идеологических воззрений и подходов»<sup>97</sup>.

---

<sup>97</sup> Мирзиёев Ш.М. С решимостью продолжим наш путь национального развития и поднимем его на новый этап. — Ташкент: «Узбекистан» / НМИУ, 2017. – С . 469.

Данная научно-исследовательская работа в определенной мере послужит реализации задач, обозначенных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-3160 от 28 июля 2017 года «О повышении эффективности духовно-просветительской работы и выводе развития отрасли на новый уровень», №ПП-2995 от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, изучения и пропаганды древних письменных источников», №126 от 10 февраля 2022 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы сохранения и изучения древних письменных источников» и в пятом приложении к Указу о Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы, а также освещению фигур правителей, сыгравших важную роль в узбекской государственности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационная работа соответствует приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан и выполнена в рамках направления I. «Формирование системы инновационных идей и механизмов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.**<sup>98</sup> Хивинское ханство, его история и социально-культурная жизнь явились объектом многочисленных исследований. Для системного анализа источников и научной литературы по данной теме целесообразно классифицировать их по пяти основным группам:

1. Труды, созданные отечественными историками.
2. Исследования, проведенные с XIX века до начала XX столетия.
3. Работы, выполненные в советский период.
4. Публикации и научные исследования периода независимости.
5. Зарубежная литература.

**К первой группе** относятся источники, в которых освещаются сведения по истории Хивинского ханства. Сюда входят труды хивинских историков – Шермухаммада Муниса, автора «Фирдавс ул-икбал», а также Мухаммада Ризы Эрниязбек оглы Агахи – «Рияз уд-давлат», «Зубдат ут-таварих», «Джомеъ ул-вакиеоти султоний», «Гульшани давлат», «Шохид ул-икбол». В эту же группу входят произведения Мухаммада Юсуфа Баяний: «Шаджараи Хорезмшахий», «История Хорезма». Эти авторы продолжили традицию историописания, начатую в XVII веке Абулгази Бахадурханом.

Кроме того, к данной группе литературы относятся труды историков и хронистов, которые в разное время действовали при дворе ханства: Хасанкори Лаффасий («Тазкират аш-шуаро»), Ахмаджан Табибий («Маджмуат аш-шуаро»), Бабаджан Таррох-Ходим («Хорезмские музыканты»), Саййид Хомид Тура Комяб («Таварих ул-хавонин»), Джуманиёз Ходжа Хорезмий аль-Хивакий («События

---

<sup>98</sup> Уровень изученности проблемы подробно описан в I главе диссертации.

эпохи Исфандияра»), Абдулла Балтаев («Материалы по истории Хорезма»), Полвонияз Хаджи Юсупов («Воспоминания»). Помимо этого, в группу входят и такие ценные труды, как произведение Муллы Бекчана Рахман оглы, посвящённое истории музыкальной культуры региона – «История хорезмской музыки».

**Ко второй группе** относятся произведения путешественников, учёных, военных и представителей других государств, посещавших Хивинское ханство. Среди них значимыми являются труды Н. Муравьёва, Г. И. Данилевского, М. Иванина, Л. Соболева, Д. Гладышева, А. Вамбери, В. Вельяминова-Зернова, А. Каульбарса, А. Шиля, А. Л. Куна, Е. Желебужского, А. Самойловича, Гришфельда, генерал-лейтенантов В. Н. Троицкого и М. А. Теренетева, полковников Л. Ф. Костенко и Ф. И. Лобисевича, востоковедов Н. И. Веселовского и С. В. Жуковского.

**Третью группу** составляют исследования, выполненные в советский период. Значительный вклад в изучение истории Хивинского ханства внесли такие учёные, как В. Бартольд, Б. Лунин, П. Иванов, Я. Гулямов, А. Балтаев, А. Мухаммаджонов, Т. Неъматов, М. Йулдошев, Т. Тухтаметов, К. Муниров, Х. Зияев, А. Бабаханов, Г. Чабров, Н. Садыкова, Э. Исмаилова, Э. Ахунджанов, К. Рахмонов, Н. Комилов и А. Муродов.

